XALQ DEPUTATLARI UCHQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-104-6-87-K/25 Uchqo‘rg‘on tumani

Uchqo‘rg‘on tumani bo‘yicha 2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun turar va noturar joylar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-659-son qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi PF-6121-sonli farmoniga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartibni joriy etishga rozilik berilganligi:

- tuman xalq deputatlari Kengashlari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash;

- tuman xalq deputatlari Kengashlariga viloyat xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashganda daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2025-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

- 2024-yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i summasi 2026-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida"gi O‘zbekistan Respublikasi qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekistan Respublikasiga ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi qonunining 2-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishga asosan:

Uchqo‘rg‘on tumanida noturar joylar uchun yer solig‘i qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkasi 1 kvadrat metr uchun mutlaq o‘lchamda 5 180 (besh ming bir yuz sakson) so‘m;

3. Uchqo‘rg‘on tumanida turar joylar yer solig‘i (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) Uchqo‘rg‘on tumanida bazaviy soliq stavkasi 1 kv.m. uchun mutlaq o‘lchamda 463,0 (to‘rt yuz oltmish uch) so‘mda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrdagi “Soliq majburiyatini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6307-sonli farmoniga asosan turar va noturar joylar uchun 2026-yil yer solig‘i stavkalarini belgilasin.

5. Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga qarab, soliq yukini kelgusi yilda keskin ortib ketishini oldini olish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun Soliq kodeksida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan turar va noturar joylar uchun kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq;

- 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq;

- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.Tuman xalq deputatlari Kengashi mazkur qarorning 1-ilovasida belgilangan yer solig‘i stavkalariga nisbatan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, o‘zlarining hududlarida joylashganda daha, massiv, mahalla, ko‘cha

kesimida 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqiga egadirlar. Bunda, keyingi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda oshiruvchi yoki kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llash, mahalliy budjet daromadlarini oshirish maqsadida faqatgina oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llamaslik belgilab qo‘yilsin.

7. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Y.Xalilov) 2026-yil uchun ishlab chiqilgan resurs soliqlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari asosida ish tashkil etsin.

8.Tuman moliya bo‘limi (Y.Xalilov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Mamajonov), "Yorqin hayot" gazetasi tahririyati (S.Najmiddinova) bilan birgalikda ushbu qarorning 1, 2 va 3-ilovalariga muvofiq soliq stavkalari, soliqqa solish tartib-taomillari hamda boshqa masalaga oid ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasinlar.

9.Mazkur qaror "Yorqin hayot" gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10.Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Nosirov hamda bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi A.Irgashev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **MIRXANOV DILSHOD ABDULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-6-87-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tuman bo‘yicha 2026-yil uchun tasdiqlanishi lozim bo‘lgan Yer solig‘i stavkalari to‘g‘risida

№	MFY	2026-yil soliq stavkasi Soliq kodeksiga asosan (1 kvadrat metr uchun)		Xalq deputatlari viloyati kengashining qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient		Xalq deputatlari viloyati kengashining qaroriga asosan belgilangan 2026-yil soliq stavkasi (1 kvadrat metr uchun)		Xalq deputatlari tuman kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient		Xalq deputatlari tuman kengashi qaroriga asosan belgilangan 2026-yil soliq stavkasi (1 kvadrat metr uchun)	
		Turar joy	Nourar joy	Turar joy	Nourar joy	Turar joy	Nourar joy	Turar joy	Nourar joy	Turar joy	Nourar joy
1	Atlas MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	0,92	458,37	5.242,16
2	Baxriobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
3	Baxt MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,71	412,07	4.045,58
4	Birlik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,80	412,07	4.558,40
5	Buston MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,92	365,77	5.242,16
6	Chek MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
7	Dexkonobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	0,92	458,37	5.242,16
8	Elatan MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,71	412,07	4.045,58
9	Eshontupi MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	0,92	458,37	5.242,16
10	Fargona MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
11	Farovon MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,09	1,02	504,67	5.811,96
12	Fayziobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
13	Guliston MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	0,71	458,37	4.045,58
14	Islomobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	1,02	458,37	5.811,96
15	Istikbol MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
16	Istiklol MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	1,02	458,37	5.811,96
17	Kattachek MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
18	Kattamugol MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
19	Kozokovul MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
20	Kuchaboshi MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,71	412,07	4.045,58
21	Kugay - Ulmas MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,09	0,92	504,67	5.242,16

22	Kugay MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
23	Kumtugon MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
24	Kuprikboshi MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
25	Kurama MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
26	Kurgoncha MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,92	365,77	5.242,16
27	Madaniyat MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
28	Mexnatobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
29	Mustakillik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,09	1,02	504,67	5.811,96
30	Namuna MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
31	Navbaxor MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
32	Navoiy MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
33	Navruz MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
34	Norin MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
35	Nurobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
36	Obod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
37	Oktovlik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
38	Ozod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
39	Paxtachi MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,71	365,77	4.045,58
40	Sanoat MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
41	Shaxrixonchek MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,71	412,07	4.045,58
42	Shodlik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
43	Sholdirama MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
44	Soxil MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
45	Tegirmon MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,09	1,02	504,67	5.811,96
46	Tinchlik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
47	Turkiston MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
48	Uchkuprik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,71	365,77	4.045,58
49	Uchyogoch MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,71	365,77	4.045,58
50	Ulugbek MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
51	Urdabog MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
52	Xalfatupi MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
53	Yangier MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	0,92	412,07	5.242,16
54	Yangiobod MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,92	365,77	5.242,16
55	Yangixayot MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,89	1,02	412,07	5.811,96
56	Yashik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	0,71	458,37	4.045,58
57	Yogdu MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,71	365,77	4.045,58

58	Yopisxon MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,79	0,71	365,77	4.045,58
59	Yorkinboychek MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	0,99	0,92	458,37	5.242,16
60	Yorqinhayot MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96
61	Yoshlik MFY	463,00	5.180,00	1,00	1,10	463,00	5.698,00	1,29	1,02	597,27	5.811,96

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-6-87-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respub likasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alko golli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Uchqo‘rg‘on tumani	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1

Xalq deputatlari Uchqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-6-87-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohak toshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, gra nodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marm ar	Granit lar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Uchqo‘rg‘on tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.3	1.3